

NAQSHBANDIYA TARIQATI HAQIDAGI DASTLABGI QARASHLAR

Nurillayeva Munisa Madiyor qizi

BUXORO PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18277114>

Annonatsiya. Ushbu maqolada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida Naqshbandiya tariqatining o'rni, Bahoutdin Naqshband siymosining badiiy va falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning "Hayratul-abror", "Nasoimul-muhabbat" va "Lisonut-tayr" asarlarida tariqat asoslarining yoritilishi, xususan, "safar dar vatan" va "nazar bar qadam" kabi tushunchalarning inson kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Naqshbandiya tariqatining mohiyati va uning XV asr ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi roli haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Naqshbandiya, Alisher Navoiy, Bahoutdin Naqshband, tasavvuf, "Hayratul-abror", piri komil, xafiy zikr, ma'naviy kamolot, "Xojagon".

KIRISH

Tasavvuf olamidagi eng keng tarqalgan va inson axloqini yuksaltirishga xizmat qilgan oqimlardan biri — Naqshbandiya tariqatidir. Bu tariqat XIV asrda Bahoutdin Naqshband (1318-1389) tomonidan shakllantirilgan bo'lsa-da, uning ildizlari Yusuf Hamadoni va Abduxoliq G'ijduvoni asos solgan "Xojagon" yo'liga borib taqaladi.

Naqshbandiya boshqa tariqatlardan o'zining mo'tadilligi bilan ajralib turadi. Uning bosh shiori: "Dast ba koru, dil ba Yor" (Qo'ling mehnatda, ko'ngling Allohda bo'lsin). Bu tariqat tarkidunyochilikni (dunyodan butkul uzilishni) inkor etadi va insonni jamiyat ichida yashab, halol mehnat qilib, qalban Alloh bilan birga bo'lishga chorlaydi. Aynan mana shu g'oya Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishida asosiy poydevor bo'lgan.

Asosiy qism

Bahouddin Naqshband Siymosi va "Hayratul-abror" Tahlili

Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" asarini boshlar ekan, uning muqaddima boblarida o'zining ma'naviy ustozlariga yuksak ehtirom ko'rsatadi. Shoir nazdida Bahoutdin Naqshband — shunchaki tariqat piri emas, balki inson ko'nglidagi ilohiy naqshlarni tiklovchi buyuk muhandisdir.

Dostondagi maxsus madhiya 45 baytdan iborat bo'lib, Navoiy unda o'ziga xos san'at qo'llaydi: dastlabki 15 baytning har birida "naqsh" so'zi yoki shu o'zakdan yasalgan so'zlar jami 31 o'rinda ishlatiladi. Bu takrorlar orqali shoir tasavvufdagi "Zikri xafiy" (pinhona zikr) mohiyatini ochib beradi. Insonning ko'ngli — ilohiy ganjina (xazina) bo'lsa, Naqshband shu xazinaning qo'riqchisidir.

Navoiy ta'kidlashicha, Bahoutdin Naqshband va uning tariqati dunyo va din ishlarini aslo bir-biridan ayirmaydi. Shoir Bahoutdin Naqshband, Xoja Ahror Valiy va o'z shaxsi o'rtasidagi ma'naviy o'xshashlikni, bir butunlikni his etadi. Bu uch buyuk zot "fano" maqomiga erishgan, ya'ni o'zligidan kechib, butun borlig'ini Haq va xalq xizmatiga baxshida etgan piri komillardir.

"Nasoimul-muhabbat" va Manoqiblar Haqiqati

Navoiy o'zining "Nasoimul-muhabbat" (Muhabbat shabadalari) asarida avliyolar hayotini yoritishda ko'proq tarixiy va manoqibiy (ibratli hikoyalar) manbalarga tayanadi. Shoir bu asarda Bahoutdin Naqshband va uning tariqati haqida maxsus ma'lumotlar beradi.

Navoiy ta'kidlaganidek, bu matnlar aslida Bahoutdin Naqshband haqidagi qadimiy manoqiblar (masalan, "Anisut-tolibin") asosida tuzilgan bo'lib, shoir ularni o'z davrining tili va ijtimoiy ehtiyojlariga moslab qayta ishlagan. Bu asarda Bahoutdin Naqshbandning oddiy hayoti, dehqonchilik bilan shug'ullangani va hech qachon bironing haqiga ko'z tikmagani kabi insoniy fazilatlari birinchi o'ringa chiqadi.

Tariqat qoidalari: "Safar dar vatan" va "Nazar bar qadam"

Alisher Navoiy asarlarida Naqshbandiyaning eng muhim 11 ta tamoyili (rashhalar) badiiy obrazlar orqali talqin etiladi. Ayniqsa, ikki tushuncha shoir ijodida alohida ahamiyatga ega:

"Safar dar vatan" (Vatan ichida safar): Navoiy asarlarida "safar" va "vatan" kalim alari ham hayotiy, ham tasavvufiy ma'noda qo'llanadi. Tasavvufiy ma'noda bu — insonning o'z nafsidan (moddiy dunyodan) o'z ruhiga (ma'naviy vatanga) tomon qiladigan ichki safaridir. "Lisonut-tayr" dostoni mohiyatan mana shu safarning badiiy bayonidir. "Nazar bar qadam" (Qadamga nazar solish): Bu talab Naqshbandiyada solikning ko'zi doimo o'z qadamida bo'lishini, ya'ni atrofga, dunyo ziynatlariga chalg'imagay, faqat o'z maqsadiga (Haqqa) intilishini anglatadi. Navoiy bu qoidani keng sharhlamagan bo'lsa-da, uning tariqatga kirgan soliklar oldiga qo'yilgan har bir talabi mohiyatan mana shu masalaga borib taqaladi: har bir bosilgan qadam — Alloh roziligi uchun bo'lmog'i lozim.

Navoiy she'riyatida naqshbandiyona g'oyalar

Navoiy nafaqat dostonlarida, balki o'zining lirik merosida — g'azal, qita va tarje'bandlarida ham tariqat qoidalari va talablariga to'xtalib o'tadi. Shoirning g'oyasiga ko'ra, tariqat — bu shunchaki kiyim kiyish yoki xonaqohda o'tirish emas, balki qalbni poklashdir.

Ushbu tushunchalar "Lisonut-tayr" va "Xamsa" dostonlarida ko'plab uchraydi. Navoiy bu asarlarda shaxsni ma'naviy tarbiyalash orqali jamiyatni isloh qilish mumkinligini isbotlashga harakat qiladi. Uning uchun Bahoutdin Naqshband — eng oliy insoniy namunadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi — Naqshbandiya tariqatining badiiy ensiklopediyasidir. Shoir ushbu ta'limot orqali insonning ichki dunyosini boyitish, uni halol mehnatga o'rgatish va jamiyatning foydali a'zosiga aylantirishni maqsad qilgan. Bahoutdin Naqshband shaxsi va uning "Dast ba koru, dil ba Yor" g'oyasi Navoiy asarlarining bosh g'oyasini belgilaydi. Navoiy merosini o'rganish, pirovardida, insonni o'zini anglashga va ma'naviy komillikka yetaklaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.: Fan, 1987-2002.
2. Bahouddin Naqshband. Manba va tadqiqotlar. T.: Toshkent Islom Universiteti, 2012.
3. Haqqulov, I. Navoiy va tasavvuf. T.: Fan, 1995.
4. Komilov, N. Tasavvuf. T.: Movarounnahr - O'zbekiston, 2009.
5. Navoiy, A. Hayratul-abror. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
6. Sultonov, X. Navoiyning ma'naviy olami. T.: Adabiyot va san'at, 1996.